Srajjidinova Nodira Shavkatovna	
STRESS-TESTLASH AMALIYOTI VA UNING TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI	675
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
MAMLAKATIMIZDATURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR KIRITILISH HOLATI VA SOHADAGI O'ZGARISH TENDENSIYALARI	679
Salomov Farrux Komil o'g'li, Hasanova Parvina	
"AKADEMIK KO'NIKMA VA KASBIY KOMPETENSIYA" FANIDA MUSTAQIL TA'LIMNING PEDAGOGIK MODELLARI: ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAHLIL VA TAKLIFLAR	683
Doniyorova Gulnoza Anvar qizi	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALINI MUSTAHKAMLASH	688
Oripova Madinabonu Mansur qizi	
REKLAMADA RANG VA PSIXOLOGIYA	691
Muxtorxonova Ozoda Axror qizi	
GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI	694
Qurbonov Alisher Boboqulovich, Abdullaev Jasur Jabborovich	
CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR INVENTORY AUDIT AND CONTROL	699
Nigora Alimkhanova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	703
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI BAHOLASHDA TAHLILIY USULLARNING AHAMIYATI	708
Alimxanova Nigora Alimxanovna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И УСЛОВИЯ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ИХ ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	712
Хусаинов Равшан Рахимович	



TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION: MODERN APPROACHES AND CHALLENGES.....	717
Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyar qizi	
QISHLOQ HUDUDLARI IJTIMOIIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	723
M.Yu.Alimova, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna	
HR-MENEJMENT SIFATINING TEKSTIL KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGI VA IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI.....	726
Yormatov Ilmidin Toshmatovich, Ochilov Akram Odilovich	
TURIZM SOHASIDA GLOBAL IMKONIYATLAR VA RAQAMLI HAMKORLIK.....	731
Salomov Farrux Komil o‘g‘li	
AUDIT NATIJALARINING SOLIQ TEKSHIRUVLARIGA TA’SIRI	736
Bakirov Norbek Norquchqor o‘g‘li	
OPTIMIZING GRADUATE ENROLLMENT MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	741
Tilakov Sherzod Akbarovich	
FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF PRIVATE BUSINESS ENTITIES AND PRINCIPLES ENSURING THEIR SUSTAINABLE OPERATION.....	745
Ochilov Akram Odilovich, Alimova Munisa Yulchiyevna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOAT AGLOMERATSIYA KLASSTERINI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA OPTIMAL JOYLASHTIRISH	750
Ochilov Akram Odilovich, Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA MEHNATGA LAYOQATLI YOSH DAN KATTA AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH.....	759
Ochilova Nargiza Akramovna	
“AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTLARI VA KICHIK SANOAT ZONALARI SAMARADORLIGI”	762
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
“A NEW METHODOLOGY FOR DEVELOPING GREEN TOURISM EXPORTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES”	766
Kurbonova Malika Ahmad qizi	
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDA SUG‘ORISH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....	770
Xolliyev Sh.B.	
EKOLOGIK TURIZM RIVOJIDA UY MEHMONXONALAR TIZIMI VA YASHIL MEHMONXONA KONSEPSIYASINING IQTISODIY ASOSLARI	773
Abdushukurova Sevinch, Sh.Xolliyev	
ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПОСТРОЕНИИ СИЛЬНОГО БРЕНДА	777
Феруза Темирова Сагдуллаевна	
SMALL BUSINESS FINANCIAL STABILITY: REGIONAL ANALYSIS	781
Muxayyo Dustova	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ В ТУРИЗМЕ: КАК МАРКЕТИНГ ПОМОГАЕТ НАЙТИ БАЛАНС МЕЖДУ ПРИБЫЛЬЮ И СПРОСОМ.....	786
Наргиза Муродова Уткировна	
OLIY TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	791
Shapopov Temirmalik Rustam o‘g‘li	
THE IMPACT OF LOGISTICS AND TRANSPORT INFRASTRUCTURE ON FRUIT AND VEGETABLE EXPORT GROWTH	796
Muxayyo Dustova	
МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ И ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК МАРКЕТИНГОВЫЕ КАНАЛЫ В ТУРИЗМЕ.....	800
Наргиза Муродова Уткировна	



EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA EKOPOLISIYA ORGANINING HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	804
Nosirov Ilhom Abbasovich, Ochilov Akram Odilovich	
BRENDLASHNING MILLIY DARAJADAGI TALQINI VA TURIZMGA TA'SIRI	810
Sunnatova Sevara Sirojiddin qizi, Ro'ziboyeva Kamola Jahongir qizi, Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich	
"QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI"	815
Xusainov Oybek Djabbarovich	



OLIY TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Shapopov Temirmalik Rustam o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktranti

ORCID: 0009-0007-1436-7531

E-mail: sharopovtemirmalik@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi integratsiya asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, dual tizimi, korxonalarda tashkil etilgan o'quv-amaliy markazlar samaradorligi, shuningdek, integratsiyaning makro va mikro darajadagi iqtisodiy afzalliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi, yuqori malakali kadrlar, iqtisodiy samaradorlik, dual tizimi, amaliy ta'lim, innovatsion rivojlanish, mehnat bozori, korxona–universitet hamkorligi, inson kapitali.

Abstract: This article analyzes the economic efficiency of training highly qualified specialists through the integration of higher education institutions and industrial enterprises. The study examines practice-oriented education, the dual training system, the effectiveness of training and practical centers established at enterprises, as well as the macro- and micro-level economic advantages of such integration.

Key words: higher education, industry integration, highly qualified personnel, economic efficiency, dual system, practical training, innovative development, labor market, university–enterprise cooperation, human capital.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая эффективность процесса подготовки высококвалифицированных кадров на основе интеграции высших образовательных учреждений и производственных предприятий. В работе рассматриваются практика-ориентированное обучение, дуальная система, эффективность учебно-практических центров, созданных на предприятиях, а также экономические преимущества интеграции на макро- и микроуровнях.

Ключевые слова: высшее образование, интеграция производства, высококвалифицированные кадры, экономическая эффективность, дуальная система, практическое обучение, инновационное развитие, рынок труда, сотрудничество предприятие–университет, человеческий капитал.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiyotning zamonaviy paradigmalariga ko'ra, globallashtirish sharoitida zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tubdan takomillashtirish, uni real sektor ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish nafaqat jahon iqtisodiy jarayonlari, balki O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi tizimli integratsiyani kuchaytirish, amaliy ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omiliga aylandi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ushbu jarayonning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrda PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi¹ Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan tasdiqlangan konsepsiyaga ko'ra, OTM tashkilotlari akademik-amaliy natijaviylik samaradorligini oshirish, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли "Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. Манба: <https://lex.uz/uz/docs/5073447>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган "Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси". Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>



keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida keltiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”² da ham oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, dual ta’lim shaklini keng joriy etish, korxonalar bilan qo’shma ta’lim dasturlarini yaratish ustuvor yo’nalishlar sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ–3775-sonli qarorida³ ishlab chiqarish korxonalari huzurida o’quv-amaliy markazlar tashkil etish, ta’lim jarayonini real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirish, talabalarni korxonalarda amaliyot va stajirovkalarga yo’naltirish bo’yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Normativ baza, shuningdek, universitetlar va korxonalar o’rtasida qo’shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, korxonalarining ta’lim jarayonidagi ishtirokini rag’batlantirishga qaratilgan mexanizmlarni ham o’z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi. Mazkur huquqiy asoslar asosida oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi natijasida erishiladigan iqtisodiy samaradorlik masalasi dolzarb bo’lib bormoqda. Integratsiya korxonalari uchun malakali mutaxassislarni qayta tayyorlash xarajatlarini kamaytiradi, ishchi kuchining unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni tez tatbiq etish imkonini yaratadi. Oliy ta’lim muassasalari uchun esa bu hamkorlik ta’lim sifatining oshishi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarining kengayishi, bitiruvchilar bandligining ortishi kabi natijalarni beradi.

Shu bois, oliy ta’lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda o’rganish, mavjud normativ-huquqiy baza doirasida mazkur jarayonning samarali modellari va mexanizmlarini aniqlash mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining nazariy-amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritib berdi. Xususan, Kodirov I.N. va hammualliflar tomonidan olib borilgan dual ta’lim asosida muhandislar tayyorlash amaliyotiga oid tadqiqotida⁴ OTM–korxona hamkorligi talabalarining amaliy tajribasi, kasbiy kompetensiyasi va ishga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishi qayd etilgan. Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi real korxona — “Muborak issiqlik elektro stansiyasi” misolida integratsiyaning yuqori samarasi namoyish etgani bilan muhimdir. Xalqaro manbalarda universitet–sanoat hamkorligi iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi muhim omil sifatida baholanadi. Masalan, Springer nashriyotida chop etilgan “Bridging Academia and Enterprise” maqolasida⁵ hamkorlikning innovatsiyalarni jadallashtirishi, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratishi va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi ta’kidlangan. ScienceDirect bazasidagi “University–industry collaboration and enterprise total factor productivity” tadqiqotida esa universitetlar bilan hamkorlik qilgan korxonalarda umumiy faktorlar mahsuldorligi (TFP) sezilarli oshishi empirik asosda isbotlangan.

O'zbekiston tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham dual ta’limning turli sohalaridagi samaralari ko’rsatib berilgan. Nizamov A.B. va boshqalarning “Yengil sanoat tarmoqlari raqobatbardoshlik omillarini baholash” nomli maqolasida⁶ yengil sanoat ta’limida dual tizimni joriy etishga bag’ishlangan ilmiy ishida amaliy mashg’ulotlarni korxonalar bilan integratsiya qilish studentlarning malakalilik darajasini oshirishi va ishlab chiqarish real sharoitiga moslashuvchanlikni ta’minlashi ta’kidlanadi. Rahmatullaev B.ning turizm va servis sohalarida bo’yicha olib borgan tadqiqoti ham sohalar kesimida integratsiyaning farqli samaradorlik xususiyatlarini ochib beradi.

Chet el adabiyotlarida e’tiborga molik yondashuvlardan biri — sinergiya nazariyasi asosida qurilgan “maktab–korxona” hamkorlik modeli bo’lib, Van va Yang tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model ta’lim va ishlab chiqarish birlashganda qo’shimcha qiymat, resurs tejash, innovatsion faoliyatning ortishi kabi natijalar yuzaga kelishini ilmiy asoslaydi.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”. Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”даги ПҚ–3775-сонли қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>

4 Kodirov I, Training engineers on the basis of dual education through the cooperation of karshi state technical university and muborak thermal power center enterprise, Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, Volume:12, Issue09, September-2025. Манба: <https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4129>

5 Rebeka C. Tucker, Sarita J. Robinson, Champika L. Liyanage, Proceso L. Fernandez Jr., Leah Amor Cortez, Darryl Roy Montebon, Sarintip Tantane, Sorraya Khiewnavawongsa, Nida Chaimoon, K. D. N. Weerasinghe, K. S. L. Gunawardena & Ranjith Dissanayake, Манба: Bridging Academia and Enterprise: A Framework for Collaborative Success. Манба: <https://link.springer.com/article/10.1007/s13132-024-02360-7>

6 Низамов А.Б. ва бошқалар. Енгил Саноат Тармоқлари Рақобатбардошлик Омилини Баҳолаш. 2023 Miasto Przyszłości, 36, 186–188. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1500>




Adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki korxonalarining raqobatbardoshligini, innovatsion salohiyatini, ishchi kuchining kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytirib, iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida normativ-huquqiy baza bilan uyg'unlashgan ilmiy yondashuvlar integratsiya modelini barqaror rivojlanish va inson kapitali salohiyatini yuksaltirishning asosiy mexanizmi sifatida qarash imkonini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, qiyosiy tahlil, shuningdek ekspert baholash metodlaridan foydalanildi.

Integratsiyaning samaradorligini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, OTM va korxonalarning qo'shma faoliyati bo'yicha ma'lumotlar, mehnat bozori ko'rsatkichlari hamda xalqaro dual ta'lim tajribalari o'rganildi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda mehnat unumdorligi, xarajatlarning qisqarishi, innovatsion faollik, bandlik ko'rsatkichlari va ta'lim sifatining oshishi kabi indikatorlar qo'llanildi.



1-rasm. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash modeli



Olingan natijalar asosida integratsiya modelining afzalliklari, amaliy tatbiqi va iqtisodiy jihatdan ustun tomonlari ilmiy asosda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar ushbu mexanizmning nafaqat kadrlar tayyorlash sifati, balki ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat bozori tarkibiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari, sanoat korxonalari, tarmoq vazirliklari hamda xalqaro tajribaga asoslangan ochiq manbalar o'rganilib, mavjud integratsion loyihalarning samaradorligi tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, talabalarning ishlab chiqarish bilan bevosita aloqasi kuchaygan sharoitda ularning amaliy ko'nikmalari an'anaviy ta'limga nisbatan 25–40 foizgacha oshishi, bitiruvdan so'ng ishga joylashish ko'rsatkichlarining esa 1,3–1,6 barobar yuqori bo'lishi kuzatildi. Bu esa integratsiyaning mehnat bozoriga tayyor va raqobatbardosh yosh mutaxassislarni yetishtirishdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Korxonalar kesimida integratsiya jarayonining iqtisodiy samarasi yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Jumladan, OTMLar bilan qo'shma laboratoriyalar, innovatsion markazlar va amaliyot bazalarini yaratgan sanoat subyektlarida texnologik jarayonlarning optimallashtirilishi, yosh mutaxassislardan tomonidan taklif etilgan yangiliklar va ilmiy ishlanmalar natijasida ishlab chiqarish tannarxining 5–12 foizgacha kamayishi, mehnat unumdorligining 8–15 foizgacha oshishi qayd etildi. Bundan tashqari, korxonalarda innovatsion g'oyalarni joriy etish sur'atlarining tezlashgani yillik foydaning 10–18 foiz atrofida oshishiga xizmat qilgan. Demak, integratsiya korxonalar uchun faqat kadr manbai emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi strategik omilga aylanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari kesimida ham integratsiyaning sezilarli pozitiv natijalari kuzatildi. Amaliy mashg'ulotlarda ishlab chiqarishdagi real jarayonlardan foydalanayotgan OTMLarda o'quv dasturlari mehnat bozori talablariga moslashtirilgan, talabalarning amaliyotda ishtirok etish ko'rsatkichi 50 foizdan 75 foizgacha oshgan. Bundan tashqari, sanoat korxonalari bilan hamkorlikda bajarilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar sonining ko'payishi OTMLarning ilmiy salohiyatini oshirishga, qo'shimcha mablag'lar – grantlar va shartnoma asosidagi xizmatlar ulushining ortishiga olib kelgan. Bu jarayon, o'z navbatida, universitetlarning strategik rivojlanish ko'rsatkichlari va xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, integratsiya mehnat bozorida ham muhim ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bitiruvchilarning malaka darajasi oshgani sayin ularning bandlik darajasi ham yaxshilanmoqda, ayrim yo'nalishlarda malakasiz yoki amaliy ko'nikmasiz bitiruvchilarning ulushi kamaymoqda. Muhandislik, texnologik va aniq fanlar bo'yicha o'qishga bo'lgan qiziqish ortmoqda, bu esa mamlakatning sanoatlashtirish siyosati uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimi quyidagi umumiy natijalarni yaratishini ko'rsatdi: kadrlar sifati oshadi, korxonalar raqobatbardoshligi kuchayadi, innovatsiyalar joriy etilishi jadallashadi, OTMLar moliyaviy va ilmiy salohiyatini oshiradi, mehnat bozori esa malakali kadrlar bilan barqaror ta'minlanadi. Natijada bu integrativ model iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va yuqori qo'shimcha qiymatga ega tarmoqlar rivojiga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega jarayondir. Integratsiya modeli ta'lim mazmunini amaliy talablariga moslashtirish, studentlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish va ishlab chiqarish sektorini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashda katta samar beradi. Bunday hamkorlik korxonalar uchun ishchi kuchi malakasini oshirish, innovatsion faollik va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishga, oliy ta'lim muassasalari uchun esa ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot salohiyati va mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga imkon yaratadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda integratsiya jarayonini qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda va dual ta'lim elementlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Umuman olganda, oliy ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi mamlakatda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi va mehnat bozorining barqarorligi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. Манба: <https://lex.uz/uz/docs/5073447>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”. Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>



3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”даги ПҚ–3775-сонли қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>
4. Kodirov I, Training engineers on the basis of dual education through the cooperation of karshi state technical university and muborak thermal power center enterprise, Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, Volume:12,Issue09, September-2025. Манба: <https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4129>
5. Rebeka C. Tucker, Sarita J. Robinson, Champika L. Liyanage, Proceso L. Fernandez Jr., Leah Amor Cortez, Darryl Roy Montebon, Sarintip Tantane, Sorraya Khiewnavawongsa, Nida Chaimoon, K. D. N. Weerasinghe, K. S. L. Gunawardena & Ranjith Dissanayake, Манба: Bridging Academia and Enterprise: A Framework for C. Success. Манба: <https://link.springer.com/article/10.1007/s13132-024-02360-7>
6. Низамов А.Б ва бошқалар, Енгил Саноат Тармоқлари Рақобатбардошлик Омилларини Баҳолаш. 2023 Miasto Przyszłości, 36, 186–188. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1500>
7. ШШ оглы Ганиев, АО Очилов, МШ кизы Суюнова, Актуальные вопросы цифровой трансформации в Новом Узбекистане и за его пределами, Экономический профессиональный журнал. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
8. ODX G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Ilm fan xabarnomasi, Yurtimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:qUcmZB5y_30C
9. IFS G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, ilm fan xabarnomasi, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini samarali boshqarishning ustuvor yo'nalishlari, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:ZeXyd9-uunAC
10. ASA G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Priority directions for effective human resource management in the context of the digital economy in the republic of Uzbekistan, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:hC7cP41nSMkC



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>